

MUSIQA TA'LIMI VA SAN'ATIDA TANBUR CHOLG'USINING O'RNI

Chorshanbiyev Jasur Shavkat o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi

2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Xolmirzayeva Feruza Mamaraim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanbur cholg'u asbobining kelib chiqish tarixi ijrochilik uslublari, musiqa cholg'ulari orasida tanbur cholg'u asbobining o'rni va ahamiyati haqida yozilgan.

Tanbur - noxunak orqali chalinadigan cholg'u bo'lib, u jahon atamalaridan cholg'ularning sinflanish va turlanishiga xordofonlar guruhiga mansub. Ushbu cholg'u O'zbekiston va Tojikistondan tashqari boshqa Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashayotgan o'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq, pomir, Afg'on, Pokiston va hindlar ijrosida juda ko'p qo'llanilib, sevimli cholg'ularidan biri hisoblanadi. Ijrochining o'ng qo'li ko'rsatkich barmog'iga noxunak kiyib torlarga urib yani chertib ijro etyadi. Chap qo'li esa tovush pardasini bajaradi. Uning ayrim qisimlarining nomlari maxsus maxsus tub ma'noga ega. Masalan "quloq" "xarrak" "kosaxona" shayton harrak va hokazo atamalarda ana shunday ma'no mavjud.

Qadim zamonlardan buyon ustalar tanburni asosan tut, yong'oq daraxtlaridan yasaganlar keyinchalik olxo'ri daraxti ustun va o'z o'rniga mansub bo'ldi. Bu to'g'rida darvish Ali o'zining "Risolaiy musiqa" asarining quidagicha yozadi "tanburning ko'pchiligi tut yog'ochidan yasaladi torlari esa ipakdan yasaladi. Shuning uchun ham cholg'ularning tovushi shirador va mayin, bu hol tut va ipakning bir-biriga ohangdoshligi ko'rinmas rishtalar bilan bog'liqligi va nihoyat bir vujudning maxsullari ekanligining natijasidir" – deyilgan. Masalan: Farg'ona vodiysida bir xil yog'och mahsuloti ishlatilsa xuddi shunday Surxondaryo va Qashqadaryoda ham ishlatiladi. Buxoro-Samarqanda ikki xil yog'och turida tut va yong'oqdan ishlanib kelingan. Bo'lsada, xozirgi davrda Buxorolik usta Karomat Muqimov ikki xil yog'och qo'llab kelmoqda. Masalan: kosaxonasi yong'oqdan bol'sa grif esa olxo'ridan, quloqxona qismlari esa Balx-tutdan ishlanib kelinishida quloqlari yana o'rikdan yasalib kelmoqda.

"Musiqa haqida katta kitob" da Forobiy yana bir cholg'u asbobi tanburni ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur forscha tan-bur ya'ni (Dilni tirnash) ud cholg'usiga yaqin turadigan cholg'udir deydi. Tanbur – bu forscha so'zdan olingan bo'lib, «*Tan*» bu yurak, dil degan ma'noni bildiradi. «*Bur*» esa kesmoq, qitiqlamoq, larzaga solmoq demakdir.

Tanbur ham uzoq asrlardan beri o'zbek, tojik va uyg'ur xalqlariga madaniy xizmat qilib kelayotgan sernola, serohang dilrabo milliy musiqa cholg'ularimizdan biri bo'lib, uni tinglayotgan shinavandalar qalbini larzaga solib kelmoqda.



Tanburda torlar noxun yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholg'udir. Tanburning ikki yoki uch jez tori bulgan. Uning ikki turi ma'lum: Xuroson va Bag'dod tanburlari. Bag'dod tanburining maqomlari kamrok; (beshta), cholg'u dastasi kaltaroq bulgan. Xuroson tanburining maqomlari ko'p bulgan, dastasida cholg'u bo'g'zidan to dastaning yarmigacha oralig'ida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o'z shaklini yo'qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg'usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Musiqa ta'limi va san'atida tanbur cholg'usining o'rni haqida gap borar ekan, avvalambor tanburda ijro uslubiyotini muvaffaqiyatli egallash cholg'u ansambllarining qulay holatda turishi ijro etuvchining to'g'ri o'tirishga va ularning to'g'ri tutilishiga bog'liqdir.

Tanbur—ham noxunli mezrobli cholg'ular turkumiga kiradi. U ko'rsatkich barmoqqa kiyiladigan metal aralashmasidan yasalgan maxsus moslama, ya'ni noxun bilan

chalinadi. Tanbur asosan tut, o`rik, yong`oqqa o`xshagan qattiq daraxtlar g`o`lasidan noksimon shaklda qilib yasaladi. Kosaning ustki qismi tut daraxtidan yassi qilib yasalgan qopqoq bilan qoplanadi. Dastasi birmuncha uzun, ingichka va pardalarga bo`lingan. Tanburning pardalari boshqa cholg`ular pardalariga nisbatan qalinroq va balandroq qilib bog`lanadi. Bu bog`lanish tanbur simlarini ezib kerakli tovush hosil qilish uchun mo`ljallangan. Tanbur ham ud soziga o`xshab juda qadimiydir. Mashhur musiqashunos olim Forobiyning fikricha, qadimda tanburlar asosan ikki simli bo`lgan va ayrim holatlarda uch simli tanburlar ishlatilgan. Qadim davrlarda Xuroson tanburlari va Bog`dod tanburlari mashhur bo`lgan. Bu tanburlar ko`rinishi jihatdan bir – biridan farq qilgan¹.

Shu o`rinda mashhur olim Fitratning “O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli kitobidagi tanbur fikrlarni aynan keltirishni lozim deb topdik. “Bugungi musiqiy kitoblarimiz tanbur so`zini tunbura shaklida yozadirlar-da, aslida yunoncha so`z ekanini so`zlaydilar. Bu cholg`uning chindan-da, yunondan kelib kelmaganini biz tomondan tekshirish mumkin bo`lmadi. Biroq bu cholg`uning sharqda juda eski bir narsa ekani ma`lumdir. Hijriy o`ninchi asrda o`tkan Hofiz Darvesh Aliy tomonidan tanburning burun ikki torli bo`lgani, so`ngra Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy otli bir musiqiyshunosning unga bir tor ortdirg`ani to`g`risida berilgan xabar esa yuqoridagi fikrlarimizning kuchini ortdirg`on bo`ladir”.

Tanburning yaratilishi va uning taraqqiyot jarayonini dastlab Movarounnahr hamda Xurosonning musiqa bilimdonlari o`z asarlarida ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etganlar. Malasan, musiqashunoslar Abu Nasr Forobiy, Kotibiy Xorazmiy, Ibn Sino, Ibn Zayla Isfaxoniy va boshqalar o`z asarlarining ayrim boblari hamda fasllarida tanburga oid muhim izohlarni berganlar. Tanbur atamasining ma`nosi turli yozma asarlarda turlicha izohlangan. Jumladan, Darveshali Changiy Buxoriy (XII asr Tuhfat-us-surur) ning ta`kidlashicha tanbur yunoncha so`z bo`lib, “tan”-yurak, “bur” - tirnash ma`nosini anglatar ekan.

Tanbur uch xil sozlanadi:

- birinchisi “rost” mizrobi.
- ikkinchisi “navo” mizroni. Navo maqomiga oid kuylar shu sozda chalinadi.
- uchinchisi “segoh” mizrobi. Segoh, Iroq, Buzruk, Dugoh maqomlariga oid kuylar shu sozda chalinadi.

Hozirgi tanburlar to`rt torli bo`lib, torlari mis va latun aralashmasidan tayyorlanadi. Dastaga 16-19 tagacha yo`g`on qilib ichak pardalar bog`lanadi. Bu pardalarni ijro etiladigan asarning ladiga qarab pastga yoki yuqoriga surish mumkin. Tanbur pardalari bir necha qavat ichaklardan tayyorlanib, qalinligi sababli dastadan ancha ko`tarilib turad. Xuddi mana shuning o`zitanburning o`ziga xos xususiyatlaridan biridir. Sozanda

¹ «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalini o`tkazish to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori

pardaning balandligi hisobiga torni ezish yo`li bilan turli tovushlar hosil qila oladi. Bog`lama pardalardan tashqari tanburning qopqoq qismiga yana to`rtta yordamchi yog`osh parda, ya`ni xasparda o`rnatiladi. Bu esa tanburning ijro etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Maqom asarlari ijro etilayotgan paytda, ayniqsa dutor va tanbur asarning parda (maqom) tizimiga moslab sozlanadi. Tanbur Buzruk, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlarida kvartaga, Rost maqomida kvintaga, Navo maqomida esa katta sekundaga sozlanadi. Sozlarning o`zgartirilishi maqomlarning mukammal ijrosini ta`minlashga yordam beradi.

Musiqa san`atining nazariyasi hamda amaliyotiga oid bunday talablar o`z ildizlari bilan ko`hna madaniyatimizning uzoq tarixiy darvlariga borib taqaladi. Mazkur masalalar milliy cholg`ularimizning tarixiga oid ma`lumotlarni tahlil qilish orqali oydinlashishi mumkin.

Dunyo xalqlari musiqa merosi, ayniqsa, milliy cholg`u asboblari bir necha tamoyil orqali tasnif etilib kelinadi. Ana shunday tamoyillardan biri musiqa asbobini chalish usuli va vositalari nuqtai nazardan tasnif etish hisoblanadi. Mana shu jihatdan o`zbek milliy musiqa cholg`ulari quyidagi guruhlariga bo`linadi:

Urma musiqiy cholg`ular – doira, nog`ora, qayroq, safoil, chindovul, tavlak, sagat (tarelka).

Damli cholg`ular – sibizg`a, nay, qo`shnay, surnay, bolomon, karnay.

Torli cholg`ular – bu cholg`ular ham o`z navbatida quyidagilarga bo`linadi;

a) torli noxunli mezrobli cholg`ular – qashqar rubobi, tanbur, ud, qonun.

b) urma jarangli torli cholg`ular – chang;

v) chertma cholg`ular – do`mbira, dutorm chang deb nomlanib kelingan burchakli arfa.

Musiqa madaniyati tarixi va xalq cholg`ulari san`at taraqqiyotiga 40-50-yillar O`zbekiston bastakorlari tomonidan turli xil xalq cholg`ulari va orkestr uchu original asarlar yaratilgan davr bo`lib kirdi. Bu davr V .Uspenskiy, B.Nadejin, G.Mushel, S.Boboyeva, F.Nazarov, V.Knyazev, I.Admoni, G`Qodirov, A.Muhamedov, B.Gienko kabi bastakorlarning ijodi gullab-yashnadi.

O`zbek xalq cholg`ularining badiiy va texnik imkoniyatlarining boyishi ularning bastakorlik faoliyati bilan uzviy bog`liq. Ijrochilik mahorati o`sgan sayin syuta, uvertyura, poema, konsert kabi yirik shakldagi janrlar rivojlangan.

B.Nadejdinning “Orkestr uchun syuta” (1940), M.Burxonovning “So`zsiz qo`shiq”, G.Mushelning “O`zbek mavzularida syuta”, M.Burxonov va M.Liviyevlarning “Yalla” (1940), S.Yudakovning “Hamza mavzusidagi syuta” (1949), M.Liviyevning “Komsomol syuta” si, S.Boboyevning “Bayram uvertyurasi”, A.Muhamedovning “Raq” (1950), F.Nazarovning “Yoshlar syutasi”, FV.Qodirovning “3 qismli syuta” (1953), B.Gienkoning “Ukrain syutasi” (1956) kabi asarlar o`sha davrda mashhur

boʻlgan edi. S.Boboyevning “Chang va orkestr uchun konsertino”, I.Admoning “Chang va fortepyano uchun musiqa daqiqasi” (Skerso, 1944), V.Knyazevning “prima rubobi va orkestr uchun konsert”, (1953), G.Zubatovning “Fortepiano poema rapsodiya” (1956) kabi tashlabki yakka va orkestr bilan ijro etiladigan original asarlar oʻziga xos qiziqish uygʻotdi.

40-yillarning oxiriga kelib orkestr tarkibiga oʻsha davrda mavjud boʻlgan xalq cholgʻulari oʻzlarining rekonstruksiyalangan turdosh oilalar bilan birga kiritilgan. Bu uning tovush boyligini simfonik orkestr ovozigacha yaqinlashtirdi, ijrochilik repertuarini Oʻzbekiston bastakorlarining yangi asarlari hisobiga sezilarli boyitish imkonini berdi.

Partituraga: nay, nikollo, nay I,II; qoʻshnay, surnay, prima-rubobi, qashqar rubobi, afgʻon rubobi, tanbur, dutor-bas, va kontrabas dutor, doira, nogʻora va boshqa urmazbli cholgʻular kiritildi.

S.Jalilov (1932-yilda tugʻulgan) ning konsert-cholgʻuchilik faoliyati ham katta eʼtiborga loyiq. Uning dutor, nay, tanbur, gʻijjak uchun yaratgan asarlari sozanda ijrochilar orasida keng tarqalgan. Ular orasida “Gʻijjak va oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri uchun konsert” asari (1980) alohida oʻrin tutadi.

Xalq cholgʻulari simfonik orkestr tarkibida ham qoʻllanila boshlandi. Jumladan, ularni birinchilardan boʻlib M.Shteynberg “Simfoniya-parsodiya” asari (1945) oʻzbek mavzularida yaratilgan. U nay, chang, tanbur, dutor, rubob, doira kabi oʻzbek xalq cholgʻulari boʻyoqlari bilan boyiganki, u xalq musiqasining koloritli yangrashi bilan oʻziga rom etadi. Xalq cholgʻulari mavzularini birinchi boʻlib naychilar A.Maqsudov, R.Gubaydulin, tanburchi A.Bahromov, changchi A.Odilov, doirachi G.Inogʻomovlar orkestr bilan birgalikda ijro etishgan.

V.Uspenskiy oʻzining oʻzbek xalq cholgʻularini oʻrgatish sohasidagi boy ijodiy tajribasini ulugʻ oʻzbek shoiri Mir Alisher Navoiy xotirasiga bagʻishladi va “Lirik poema” (1947) sida tatbiq etdi. Bastakor simfonik orkestr tarkiba chang (2), nay, tanbur, doira (2), qoʻshnay, nogʻora, safoyil (2) kabi bir guruh xalq cholgʻularini kiritdi.

Ushbu asarni oʻzbek xalq cholgʻu orkestri musiqachilari ham ilk ijrochilari hisoblanadilar. Xalq cholgʻularining tembr xususiyatlari A.Kozlovskiyning simfonik ijodida ham oʻz aksini topdi.

Milliy istiqlol gʻoyasida yurt tinchligi muhim omil sifatida qadrlanadi. Oqituvchi yosh avlodni kuylash, musiqa tinglash faoliyatlarida yurt tinchligi, osoyishtaligi va farovonligi mavzuidagi musiqa asarlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanishi muhim. Zero, milliy istiqlol gʻoyasi targʻibotida oʻrta taʼlim maktablari musiqa darslarining ahamiyati katta. Fan dasturining tahlili shuni koʻrsatadiki, V-VII sinflarda 85 nomlanishda mumtoz xalq kuy va qoʻshiqlari, “Shashmaqom”dan namunalari, shuningdek bastakorlar ijodidan kuy va qoʻshiqlar kiritilgan. Ular turli mavzularda, jumladan Vatanga muhabbat sadoqat, milliy gʻurur va iftixor, mustaqillik hamda tashabbuskorlik, shunday sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan asarlardan

“Ozbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” M.Burxonov musiqasi A.Oripov she’ri, “Xur respublikam” A.Mansurov musiqasi P.Mo’min she’ri, “Ozbeqimdan aylanay” N.Norxojayev musiqasi, R.Tolib she’ri, “Kelajak bizniki” Kenjayev musiqasi, B.Isroil she’ri kabilarni misol keltirish mumkin. Bu asarlarni yosh avlod tarbiyasiga katta ijobiy ta’sir ko’rsatishi uchun musiqa o’qituvchisidan mahorat, bilimdonlik, ziyraklik, san’atkoarlik sifatleri, yuksak ma’naviyat va kreativ yondoshuv talab etiladi. Masalan, o’quvchilarga o’rgatiladigan kuy-qoshiqlarni albatta mazmunli suhbat bilan to’ldirilishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Mamlakatimiz mustaqilligi, tinchligi, osoyishtaligi, yurtboshimizning boshqa davlatlar bilan olib borayotgan tinchliksevar va do’stlik, hamkorlik siyosati, elu-yurt obodligi, farovonligi uchun olib borayotgan ulkan ishlari haqida so’zlab berish lozim. Shundagina o’quvchi – yoshlar ongida bu tushunchalar mohiyati yanada kuchayadi va ular tinchlik – osoyishtalik bebaho boyligini teran tushunib, o’zi yashayotgan diyor madhini jo’shib kuylagisi keladi.

Musiqa cholg’u ijrochiligi yosh avlodni tarbiyasida ham ma’nan ham jisman kamolotga undovchi, ezigulik va bunyodkorlikka da’vat etuvchi sifatlar mujassam bo’ladi. Bu g’oya, uning mohiyati sharq donishmandlari ijodida mukammal bayon etilgan. Zero, buyuk mutafakkirlar shaxs-ahloq odobi masalalari bilan birga uning ma’naviy kamoloti uchun muhim bo’lgan musiqa tarbiyasi bilan ham bevosita shug’ullanib, tarbiyaning bu turisiz yosh avlodni ma’naviy madaniyatini amalgam oshirib bo’lmasligini ta’kidlab o’tishgan. Abu Nasr Al-Farobiy ma’rifatparvarlik g’oyalarida musiqaning inson kamolotidagi ahamiyatini qayt etib: “Ey musiqa olami yaxshiyam sen borsan, agar sen bo’lmaganingda insonning ahvoli ne kechar edi”. -deb e’tirof etsa, Abu Ali Ibn Sino - Insonning ma’naviy yetuk, jismonan baquvvat, har tomonlama kamolotga yetkazishda bolani juda yoshligidan boshlab musiqiy hissiyotini tarbiyalash muhimligini ta’kidlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Radjabova, G. M. The educational value of oral folk art for preschoolers. European research, (1), 75.
2. Rajabova, M. G., Makkaeva, R. S. A., & Mahluff, A. (2021). Strategic framework for sustainable enterprise development. In Sustainable Development of Modern Digital Economy: Perspectives from Russian Experiences (pp. 35-43). Cham: Springer International Publishing.
3. Rajabova, M. (2021). O’ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO’LLARI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
4. Rustamova, I. K., Abdullayev, R. A., & Xolmirzayeva, M. F. (2020). Study of depression and anxiety prevalence in patients undergoing acute myocardial infarction. Вестник Казахского национального медицинского университета, (2-1), 628-629.

5. Amanbayevich, K. E. (2022). PHYSICAL AND MENTAL PRINCIPLES OF PREPARING TRADITIONAL SINGERS FOR LARGE ASHULLA PERFORMANCE PROCESSES. *Scientific Impulse*, 1(4), 288-291.
6. Arzikulovich, N. E. (2022). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF EXECUTIVE SKILLS IN THE NAY INSTRUMENT. *Scientific Impulse*, 1(4), 292- 296.
7. Bakhritdinova, F., & Kangilbaeva, G. (2022, June). Features of the angiography of the eye bottom in patients with diabetic retinopathy. 24th European Congress of Endocrinology 2022.
8. Amanovich, K. E. (2022). TRADITIONAL SINGING AND TRADITIONAL MUSIC SKILLS. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 2
9. Хо'jageldiyeva, M. (2021). Music as a Science and its peculiarities. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*.
10. Хо'jageldiyeva, M. (2021). Dutar national instruments and performance methods. *Analytical Journal of Education and Development*, 1(06).
11. Qizi, K. M. E., & Ugli, C. S. N. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 67-71.
12. Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. *Экономика и социум*, (4-2 (95)), 211-214.
13. Хо'jageldiyeva, M. Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqa ning bola tarbiyasida tutgan o'рни. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*.
14. Ходжагельдыева, М. Э., & Мащрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
15. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.
16. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563- 566.
17. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563- 566.
18. Ходжагельдыева, М. Э., & Мащрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.

19. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.
20. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563- 566.
21. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923
22. Kho'jageldiyeva, M. Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(4).
23. Pardayevna, H. N. (2022). MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(3), 127-130.
24. Akramovna, S. S. (2021). Dutar National Instruments and Performance Methods. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 329-331.
25. ED Uktamovna. (2023). FORM, METHODS AND MEANS OF FORMING CHILDREN'S MUSICAL ABILITY. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 19 (8), 58-62
26. HN Pardayevna. (2023). UMUM TA'LIM MAKTABLARI "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINING MAZMUNI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 19 (8), 63-66.
27. CS Nasriddin o'g'li (2023). CONTENT OF MUSIC CULTURE LESSONS AND ELEMENTS ORGANIZING THE MUSIC EDUCATION SYSTEM. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 18 (8), 72-77